

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504424>

GUSTAV FLOBERNING “BOVARI XONIM” ASARI QIYOSIY TAHLILI

Shopo‘latova Gulhayo Shuxrat qizi

Ishquvvatov Mamarasul Yigitali o‘g‘li

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabalari

Annotatsiya: Maqolada jahon adabiyoti serqirra qalam sohibi hisoblangan Gustav Floberning hayoti va ijodi hamda shoirning qalamiga mansub “Bovari xonim” asari, uning obrazlar tizimi, undagi bosh va yordamchi obrazlarning boshqa ijodkorlar asarlaridagi obrazlar bilan qiyosiy tahlili atroflicha yoritildi.

Kalit so‘zlar: Gustav Flober, realizm, roman, Balzak, Stendal, fransuz adabiyoti, jahon adabiyoti, adabiy naturalizm, syujet, obraz.

Abstract: In the article, the life and work of Gustave Flaubert, who is considered the master of world literature, as well as the work of the poet "Madame Bovary", his system of images, the main and supporting characters in it, and the comparative analysis of the characters in the works of other artists were detailed.

Key words: Gustav Flaubert, realism, novel, Balzac, Stendhal, French literature, world literature, literary naturalism, plot, image.

Аннотация: В статье рассмотрены жизнь и творчество Гюстава Флобера, считающегося мастером мировой литературы, а также творчество поэта «Госпожа Бовари», его система образов, главные и второстепенные персонажи в нем, сравнительный анализ. анализ персонажей произведений других художников был детальным.

Ключевые слова: Густав Флобер, реализм, роман, Бальзак, Стендаль, французская литература, мировая литература, литературный натурализм, сюжет, образ.

XIX asr fransuz realizmi rivojlanishining ikkinchi bosqichi Flober nomi bilan bog'liq. Fransuz yozuvchisi Gustav Flober 1821-yilda Fransiyaning Ruan shahrida tavallud topdi. U dastlab Parij universitetining huquqshunoslik fakultetini o'qib tugalladi. Ammo yoshligidan adabiyotga bo'lgan qiziqishi tufayli hikoya, qissa yoza boshladi. Yozuvchi asosan, 1857-yilda yozilgan "Bovarixonim" romani bilan shuhrat qozondi. Flober rus yozuvchilari I. Turgenev, Tolstoy bilan yaqin ijodiy aloqada bo'lgan edi. Ijodi Rossiyadagi adabiy jamoatchilik diqqatini ham o'ziga tortdi. *Fransuz ayolining ziddiyatlarga to'la hamda zerikarli, qoniqarsiz va nihoyat fojiali hayotini tasvirlagan asar – «Bovari xonim» asari 1856-yilda nashr etilgan. Asar Gustav Floberning ilk romani bo'lib, chop etilgan yiliyoq turli qarshiliklarga uchraydi. Asarga axloqsizlikni targ'ib etish vositasi sifatida qaraladi va uni xuddi shu mazmunda qoralab chiqishadi. Bu esa aks ta'sir ko'rsatib, salbiy ma'noda bo'lsa-da romanning shuhratini keng tarqalishiga olib keladi. Asarning realizm yo'nalishiga qo'shgan hissasi uning adabiyot tarixidagi o'rnini mustahkamlaydi.* Flober badiiyatining fransuz va jahon adabiyotiga ta'siri katta. Ko'pchilik adabiyotshunoslar uni O. Balzakning realistik an'analari davomchisi deb hisoblaydi. "Bovari xonim" romani esa Floberning dunyoqarashi va estetik tamoyillarini aks ettiruvchi ilk muvaffaqiyatli asari sifatida jahon adabiyotidan munosib o'rin egalladi. Yozuvchi ushbu asar ustida besh yil ishlagan edi. 1851-yilning kuzida Flober "Bovari xonim" romanining birinchi syujetini yaratdi. Flober u tasvirlayotgan manzara – burjua dunyosining manzarasi uning umidsizligi bilan ifodalanishini aytib o'tgan edi. Roman ustida ishlayotgan Flober "o'ylaymanki, kitobxonlar birinchi marta o'z qahramonini masxara qiladigan kitobni mutolaa qiladi", deb yozadi. Romanda adabiy naturalizmning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Floberning odamga nisbatan shubha bilan qarashlari uning asarlarida ijobiy qahramonlar yo'qligida namoyon bo'ldi. Bugungacha Flober Fransiyaning uch buyuk realistlaridan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Fransuz realizmi taraqqiyotida Floberning faoliyati Balzak va Stendalning asarlari singari muhim bosqichdir. Asar bugungi kungacha o'zining realizm adabiyotida turgan o'rnini saqlab kelmoqda. Flober nega aynan realizmni tanladi? Flober yashagan davrda asarlarda romantizm

ulug‘lanardi (Emma o‘qigan mashhur kitoblar romantizm davriga tegishli adabiyotlar edi). Ammo hissiyotlarning ko‘kka ko‘tarilishi va ularni barcha narsadan ustun qo‘yilishi real hayotda fojiga olib kelishi hech gap emas. Insoniy hislar tafakkurdan yoki bilim hissiyotdan ustun qo‘yilmasligi lozim. Ikkala holda ham inson hayoti ziddiyatlarga to‘ladi. Flober mana shu ziddiyatlarni ochib berdi. Go‘zallik, muhabbat, ishq – bularning barchasi go‘zal, ammo ularning ortida turgan xatarni e‘tiborsiz qoldirish aslo mumkin emas. Sevgini ilohiylashtirish undan yuz o‘girishga sabab bo‘lishi mumkin. Emma qalbida sevgiga oid hislar mavjud edi, ammo ular abadiy emasdi. Bir necha marta muhabbat dardiga yo‘liqqan Emmaning oxir taqdiri o‘z joniga suiqaqd bilan yakunlandi. Ammo u sevgini oddiy qabul qilganida, o‘z hislariga tamomila erkinlik berib, mukammal baxtni his qilishga urinmaganida, mukammal baxtsizlikka yo‘liqmagan bo‘lardimi, balki? Flober o‘zining maktublarining birida aytadi: «Emma o‘qigan romantik kitoblar bo‘lmaganida, uning taqdiri bu qadar achinarli holga kelmagan bo‘lardimi». Demak, Emmaning taqdiri u muhabbatni barcha narsadan ustun ko‘rganida, xayolotga berilib, reallikdan bexabar qolganida ekan-da? Uning muhabbati biron marta ham oxirigacha yetmaganiga sabab sifatida jamiyat va odamlarni ham keltirib o‘tishimiz mumkin. Xasta jamiyatdagi munosabatlar ham illatlarga to‘la bo‘ladi. Turmush o‘rtog‘idan topmagan muhabbatni qidirish Emmani bir necha marta turli ishq yo‘llariga eltdi. Bularning barchasi sof insoniy tuyg‘ularga ergashish emas, balki kitoblarda ko‘rsatilgan baxtni topishga urinish yoki turmush o‘rtog‘idan topmagan baxti tufayli yo‘lda uchragan begonadan bu mehr-muhabbatni kutish edi. Uning tez sevib qolishi sababi ham, ushbu munosabatlar ijobiy yakun topmasligining ham sababi shunda edi. Har qanday asarning buyukligini isbotlovchi omillardan biri uning vaqt o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmasligidadir. Zamon o‘zgargani sayin, asarning ham turli talqinlari tug‘ilaveradi... O‘z davrida asarni illatlarni yoyishda ayblashgan bo‘lsa, ma’lum vaqt o‘tib, burjuaziyaning tanqidi sifatida ko‘ra boshlashdi. Keyinchalik esa hayot realligi va kitobiy tasavvurlar qarama-qarshiligi, romantizm davri tugab, realizm davri boshlanayotganiga alohida urg‘u berila boshlandi. Yigirma birinchi asr insonlari esa asarni jamiyatdagi tartiblar tomonidan kishanlangan ayol

tomonidan turib, tahlil eta boshladilar. Qarashlar o'zgargani, insoniyat o'zini yangilab borgani sayin asar mazmuni yangi qirralardan turib kashf etilmoqda. Kelajak ushbu durdonaga qanday baho berishi esa hozircha bizga noma'lum.

Flober o'z asarida ayol obrazini Bovari xonim misolida yuksak darajada ochib bergan va shu bilan ayol siymosini asarida o'ziga xos tarzda gavdalantira olgan. Asarlarda o'z millati siymosi darajasiga ko'tarilgan ayol qahramonlar talaygina. Jumladan, yapon adabiyotida Otikubo ("Go'zal Otikubo haqida ertak"), rus adabiyotidagi Tatyana Larina ("Yevgeniy Onegin"), ingliz adabiyotida Elezabet Bennet ("G'urur va andisha"), amerika adabiyotida Skarlet O'hara ("Shamollarda qolgan hislarim"), fransuz adabiyotida Bovari xonim ("Bovari xonim") obrazlari ana shunday o'lmas qahramonlar sirasidandir [1;548].

Xulosa qilib aytganda Floberning "Bovari xonim" asari yaratilganiga yuz yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'sa-da, asar haligacha o'zining badiiy qiymatini yo'qotgani yo'q. Bu asar jahon adabiyotining eng sara asarlari sifatida e'tirof etilishi esa yozuvchining yuksak badiiy mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://doi.org/10.5281/zenodo.677283>
2. U.Jo'raqulov, K.Hamroyev "Qiyosiy adabiyotshunoslik" Toshkent – 2021
3. <https://wordlyknowledge.uz/>
4. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/5045/4787>